

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
TIL NAZARIYASI KAFEDRASI**

**“TILSHUNOSLIK NAZARIYASI” KAFEDRASI
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

Tuzuvchi: prof. Z.Xolmanova

Fan/modul kodi 4001TN9M		O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1,7	ECTS - Kreditlar 5/4	
1semestrda ECTS – kreditlar soni 5		Ta’lim tili o‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning darajasi Yuqori darajadagi fan - 400		Fan/modul turi Majburiy		Modul rahbari Xolmanova Z. zulxumor-uzmu@mail.ru	
Universitet kampusi 1-blok		Hafta kunlari Dushanba, chorshanba, juma		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
1-semestr	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	1-modul “Tilshunoslikka kirish”		60	74	134
	Jami		60	74	134

Fanning tavsifi:

Tilshunoslik sohasining predmeti, maqsadini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda tilning grammatik strukturasi, til va jamiyat, til va tafakkur munosabatlari, til birliklari, nutq birliklari, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, tilshunoslik metodlariga oid bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, tilshunoslik tarixining eng muhim bosqichlari borasida tasavvur hosil qilish, asosiy lisoniy ta’limotlar va maktablari, yo‘nalishlar haqida ma’lumot berish muhim vazifalardan biridir.

Fanni o‘qitishning maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til birliklari, nutq birliklari, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universalialar va til strukturasi haqida ma’lumot berishdan iborat.

Fan mohiyati:

“Tilshunoslik nazariyasi” fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash; talabalarda tilshunoslik nazariyasi bo‘yicha asosiy bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish; tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til sathlari, tilshunoslik fani bo‘limlari, tilshunoslikda faol qo‘llanadigan terminlar mohiyatini anglash, tilshunoslikning nazariy masalalariga ilmiy yondashuvni shakllantirish; tilshunoslik fanining tarixi, tilshunoslik maktablari va yo‘nalishlari, tilshunoslik metodlari, lisoniy universalialar, lingvistik ta’limotlar va til strukturasi haqida bilim berish vazifalari nazarda tutiladi.

Fanning natijasi:

talaba tilning va jamiyatning o‘zaro ta’siri, tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi, lisoniy munosabatlari haqidagi bilimni o‘zlashtiradi;
 tilning ramzlar tizimi sifatidagi xususiyatlari, lisoniy munosabatlar haqida tasavvurga ega bo‘ladi;
 tillarning tipologik tasnifini faktik material asosida yoritadi, morfologik tasnifni agglyutinativ va flektiv tillar misolida tahlil qila oladi;
 geneologik tasnifni til oilalari va til guruhlari asosida izohlaydi, nazariy tilshunoslik masalalari haqida mustaqil fikr yurita oladi.

Baholash mezonlari:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash JN, ON, YN dan iborat.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
ON	70%	Sinov	Test/og‘zaki/yozma
YN	30%	Imtihon	Test

Ta’lim berish va o‘qitish metodlari:

ma’ruza, “keys-stadi”lar, seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar), guruhlarda ishlash, taqdimot texnologiyasi, intellekt xaritalar, konseptual jadvallar.

Kalit so‘zlar:

tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, til va jamiyat, til va nutq, til va tafakkur, til-lison-nutq, lisoniy munosabatlar, tillarning shakllanishi va rivojlanishi, tilning taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi, dunyo tillari tavsifi, tillar tasnifi, geneologik tasnif, til oilalari, til guruhlari, morfologik tasnif, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, umumiy tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, fonetika, fonologiya, grammatika, morfologiya, sintaksis, qadimiy til, proto til, sinxroniya, diaxroniya.

Mavzular ro‘yxati –

**1. “Tilshunoslik nazariyasi” fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlari:
1 –semestr**

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
№	1 -modul “Tilshunoslikka kirish”	20 soat
1.	“Tilshunoslik nazariyasi” – nazariy fan sifatida.	2
2.	Til va jamiyat munosabati.	2
3.	Til va tafakkur munosabati.	2
4.	Tilning semiotik tabiati	2
5.	Til – lison–nutq munosabati.	2
6.	Til birliklari o‘rtasidagi lingvistik munosabatlar.	2
7.	Tillarning shakllanishi va rivojlanishi.	2
8.	Til va yozuv. Yozuv turlari.	2
9.	Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi.	2
10.	Dunyo tillari tavsifi va tasnifi.	2

“Tilshunoslik nazariyasi” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar

Mavzular	Dars
----------	------

		soatlari hajmi
1.	“Tilshunoslik nazariyasi” fanining amaliy ahamiyati.	2
2.	Tilning ijtimoiy vazifalari.	2
3.	Til birliklari va mantiqiy tushunchalar.	2
4.	Til – ramzlar tizimi.	2
5.	Til birliklari va nutq birliklari.	2
6.	Til birliklari o‘rtasidagi lingvistik munosabatlar tahlili.	2
7.	Tillarning shakllanishi haqidagi nazariyalar.	2
8.	Yozuvning tarixiy ahamiyati.	2
9.	Til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o‘zgarishlar.	2
10.	Tillarni tasniflash mezonlari.	2
		20

“Tilshunoslik nazariyasi” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
1.	Tilning jamiyatdagi o‘rni va til siyosati.	2
2.	Muloqotning verbal va noverbal ko‘rinishlari.	2
3.	Til – fikr ifodasi sifatida.	2
4.	Til – belgilar tizimi.	2
5.	Nutq va uning xususiyatlari.	2
6.	Assotsiativ munosabat tahlili.	2
7.	Alisher Navoiyning til shakllanishiga doir qarashlari.	2
8.	Yozuv va imlo masalasi.	2
9.	Til taraqqiyotidagi leksik-semantik o‘zgarishlar.	2
10.	Flektiv tillarning xususiyatlari.	2
	Jami:	20

FAN BO‘YICHA SAVOLLAR TO‘PLAMI

1. Til sathlarini ayting va ular o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni asoslang.
2. Tilning lug‘at boyligini oshiruvchi omillar qaysilar va til taraqqiyoti uchun ulardan qaysi biri muhimroq?
3. Grammatik sath necha qismdan iborat va bu qismlarning o‘rganish ob’ekti nima?
4. Nutq fonetik jihatdan necha qismga ajratiladi? har birini ta’riflang.
5. Til taraqqiyotidagi kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlarini misollar asosida izohlang.
6. Morfologik qayta bo‘linish sabablarini tushuntiring.
7. Yozuv va uning tarixiy ko‘rinishlari haqida ma’lumot bering.
8. Lingvistik tahlil jarayonida qo‘llanadigan asosiy metodlarni tavsiflang.
9. Transformatsion metodni misollar asosida izohlang.
10. Statistik metod va uning til hodisalarida mavjud bo‘lgan aniqlikni ifodalashdagi o‘rnini asoslang.
11. Sinxron lingvistik metodlarni tavsiflang.
12. Qiyosiy-tarixiy metodning “Tilshunoslik nazariyasi” faniga doir masalalarni hal qilishdagi o‘rnini ko‘rsating.
13. Millatlararo tillar.
14. Xalqro tillar.
15. Sun‘iy tillar.
16. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida.
17. Til birliklari va nutq birliklari.
18. Til sathlari; tilning fonetik-fonologik sathi.

19. Tilning lugʻat sathi.
20. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
20. Til birliklarning alohida tizim sifatida oʻzaro mutanosibli.
21. Til taraqqiyotidagi fonetik oʻzgarishlar.
22. Yozuv va uning tarixiy koʻrinishlari.
23. Gap boʻlaklarini ajratish metodi.
24. Til taraqqiyotidagi fonetik oʻzgarishlar
25. Tilshunoslik tarixi.
26. Oʻzbekistonda til ilmi tarixining asosiy bosqichlari.
27. Tilshunoslik maktablari.
28. Tilshunoslik maktablari taʼlimotlarining asosiy mohiyati.
29. Til strukturasi. Fonetika va fonologiya muammolari.
30. Grammatika va grammatik taʼlimotlar.
31. Lingvistik tahlil metodlari.
32. Lisoniy tadqiqotlarga xos paradigmalari.
31. Sotsiolingvistik.
32. Til va jamiyat munosabatlari.
33. Tilning jamiyatdagi koʻrinishlari.
34. Tilning ijtimoiy vazifalari.
35. Fonetik sath xususiyatlari.
36. Fonetik – fonologik sathning oʻrganish obyekti.
37. Nutqning fonetik boʻlinishi.
38. Til taraqqiyotidagi tarixiy-fonetik oʻzgarishlar, tovush oʻzgarishlari.
39. Urgʻu va uning ahamiyati.
40. Tilning shakllanishiga oid qarashlar, nazariyalar.
41. Til birliklari va nutq birliklarining oʻzaro munosabati.
42. Tilning lugʻat sathi.
43. Lugʻaviy birliklar.
44. Til taraqqiyotidagi leksik-semantik oʻzgarishlar.
45. Maʼno torayishi.
46. Tilning kommunikativ funksiyasi.
47. Tilning emotsional-ekspressiv funksiyasi.
48. Tilning akkumulativ funksiyasi.
49. Meʼyorlashtirilgan tillar.
50. Adabiy til va shevalar.
51. Kreol tillar. Pijin tillari.
52. Tillarning chatishuvi masalasi.
53. Til-ramzlar tizimi
54. Tilning fonetik-fonologik sathi.
55. Tilning lugʻat sathi.
56. Tilning grammatik sathi.
57. Til-tafakkur-nutq munosabati.
58. Sinxroniya. Diaxroniya.
59. Tovush oʻzgarishlarining tarixiy koʻrinishlari.
60. Jamiyatning til taraqqiyotidagi oʻrni.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2013.
4. I.Yoʻldoshev va b. Mutaxassislikka (tilshunoslikka) kirish. –Toshkent, 2018. 307-b.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2019.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”. 2017 йил, 8 февраль).
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари” тўғрисидаги қарори (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 21 апрель)
11. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004.
12. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. –Toshkent: Fan, 2007.
13. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapest, 2006.
14. Dadaboyev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi – Toshkent, 2004.
15. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.,1990.
16. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. –Andijon, 2006.
17. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
18. Nurmonov A. Linvistik tadqiq metodologiyasi va metodlari. –Toshkent, 2011
19. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. –Toshkent, 2007.
20. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
21. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007.
22. Хожиев А. Тилшунослик терминлари луғати. –Тошкент, 2002.
23. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent, 2020.

Elektron manbalar

www. literature.uz

www. genhis philol.ru.

<http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.

<http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

O‘qituvchining kontakt ma’lumotlari: tel.: 93 564 20 49

E-mail: zulxumor-uzmu@mail.ru

O‘qituvchining bilan haftalik konsultatsiya vaqti:

Dushanba, chorshanba, juma kunlari soat 9:00 dan 12:00 gacha